

INSON KAPITALI VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNI

Xudayorova Zebuniso Otanazarovna

QK xizmatchisi, Chirchiq OTQMBY

Gumanitar fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

matquliyevjasur@gmail.com

+998958304990

Annotatsiya: Maqolada bugungi davrda kun sayin jamiyatimiz hayotida barcha muammo va masalalarga yechim bo'la olguvchi, mamlakatlar qudratining hal qiluv kuchini belgilab beruvchi omil hisoblanmish zamonaviy investitsiya- Inson kapitali va uning zamonaviy O'zbekiston ijtimoiy hayotidagi o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Inson kapitali, inson faktori, kuch, investitsiya, YAIM, ta'lim, "Human Capital", shaxs, kadr.

Shiddat bilan taraqqiyotning yangi bosqichlari sari odimlayotgan insoniyat bugungi kunga kelib har bir xatti-harakat va faoliyatdan imkon qadar yuqori natija, samara va unumdoorlik ko'zlashi hech kimga sir emas. Bunga sabablar bisyor albatta, jumladan, yuksak ilmiy salohiyatning ortib borishi bilan birga uni vujudga keltiruvchi ta'lim tizimi ham yondosh ravishda o'z-o'zidan yangilanib boraveradi .Bu esa yangi bilim, malaka, ko'nikmalarga ega bo'lgan zamonaviy kadrlarni vujudga kelishiga zamin yaratadi. Bunday kadrlarni endi biz mukammal va mufassalroq bo'lgan nom bilan atashimiz joiz menimcha, ya'ni Inson kapitali!

Inson kapitali- bu nima?

Inson kapitali: foyda va unumdoorlikning yuqori ko'rsatgichlarini qayd etuvchi kadr; inson kapitali-mamlakat ichki va tashqi bozorida talablarni qondirishga ixtisoslashgan va umum muammolarga yechim topa oladigan kuchli kadr; inson kapitali-inson omili va inson faktoridanda yuqori pag'onalarda turuvchi, ijobiliylik xususiyatlariiga ega bo'lgan fenomen; inson kapitali- malakatning eng foyda berish koiffsentib baland bo'lgan asl investitsiyasidir; inson kapitali-oddiy kadr dan farqli o'laroq, faqat belgilangan vazifalarni bajaribgina qolmasdan, unga yangicha yondashuv va eng maqbul yechimni topa oluvchi ishchi kuchidir . Shu o'rinda ta'kidlab o'tmoqchimanki, o'zbek tilining izohli lug'atida inson kapitali jumlesi haqida umumlashgan ma'lumot topilmasada ammo yuqorida biz inson kapitaliga churorroq ta'rif berish uchun tilga olgan ishchi kuchi jumlasiga oid ma'lumotlar bisyordir.

«Ish kuchi» o'zbekchada odamning biologik va fizik imkoniyatlariga («kuch») tayangan holda mehnat faoliyatini amalga oshirilgan vaziyatlarga qo'llaniladigan iboradir. Masalan: 1960-yillarda Angliya va Fransiya mamlakatlari iqtisodining ish

kuchiga bo‘lgan talabi asosan sobiq mustamlakalardan kelgan qora ishchilar hisobiga qoplanar edi. «Inson faktori» 1980-yillarda tilimizga rus tili orqali kalka yo‘li bilan tarjima qilish tufayli(chelovecheskiy faktor - inson faktori) kirib kelgan birikma va tushunchadir¹.

Umumiy ishchi kuchi tarkibidagi tarkibiy o‘zgarishlar, iqtisodiy o‘sish omillariga qiziqish inson kapitali nazariyasining paydo bo‘lishi va rivojlanishiga sababchi bo‘lgan. Ilmiy-texnik inqilob, mehnatni avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash, transformatsiya ta’siri ostida jamiyat, ushbu shartlarning malakasi, har bir shaxsning va umuman aholi ta’lim darajasining ahamiyati oshishi, ishlab chiqarishning asosiy omili sifatida mehnat va hosila sifatida kapital o‘rtasidagi qat’iy farq haqidagi sanoat inqilobidan meros bo‘lib qolgan omil o‘zining dastlabki ma’nosini yo‘qotdi.

Zamonaviy inson kapitali tushunchasining iqtisodiy nazariyalari T. Shuls, G. Bekker, E. Denison, R. Solov, J.Kendrik, S. Kuznets, S. Fabrikant, I. Fisher, R.Lukas va boshqa olimlar tomonidan ishlab chiqilgan.

Fikrimizcha, o‘zbek tilida «inson kapitali» so‘z birikmasini inglizchadagi «Human Capital» ma’nosida ishlatish o‘rinlidir. Boshqa birikmalar va tushunchalar esa, ma’lum bir davrlarga xos iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlarini ifodalagan uchun o‘sha tushunchalarni ifodalash ehtiyoji tufayli nutqiy qo‘llanimda davom etmoqdadir. Toshkent Iqtisodiyot universitetining bir guruh olimlari tarafidan nashrga tayyorlanib, e’lon qilingan «Inson taraqqiyoti» darsligining mualliflari keltirgan jadvalda, ayniqsa bu hol juda lo‘nda va tushunarli shaklda ifodalangan.²

Bugungi kunda zamonaviy dunyo nazdida resurslar o‘z doirasini kengaytirib bormoqda, endi an’anaviy hisoblab kelingan uch resurs: mehnat, yer, kapital omillariga fan-texnika tarraqiyoti omili ham qo‘sildi, axborot va bilimlar esa eng muhim resurslarga aylandi. Innovatsion iqtisodiyot bevosita ana shu asosda shakllanib, ushbu iqtisodiyotda inson va uning salohiyati hal qiluvchi rol o‘ynamoqda.

O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi va uni 2022-yil – “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi ham aslida manashunday kapitallar bilan iqtisodiy va ijtimoiy hayotimizni boyitish uchun yaratilgandir. Qabul qilingan yangi taraqqiyot strategiyasida yetta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha “Inson qadri uchun – 100 ta maqsad” belgilangan. Ular orasida adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishga oid vazifalar bor. Binobarin, inson kapitaliga e’tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart[1] Sh.M.Mirziyoyev

¹ “Inson kapitalining shakllanishida ta’lim va ilm-fanning roli” Usmonov B.Sh. va boshqalar, ilmiy-ommabop risola. . – T.:, 2013. – B. 55;

² Inson taraqqiyoti. Darslik. /I.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida . – T.: Iqtisodiyot, 2013. – B. 55;

Jamiyat turmushi va iqtisodiyotda inson faktorining (Human Factor) va umuman inson kapitali (Human Capital) tushunchasining ommalashuvi yetakchi rivojlangan davlatlarda bu xususdagi tadqiqotlarning avj olishiga olib keldi. Amerikalik ikki iqtisodchi olim - Teodor Shuls (1979) va Geri Bekker (1992) inson kapitali nazariyasining asoslarini ishlab chiqdilar va bu tadqiqotlari uchun xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo‘ldilar. Bu olimlarning inson kapitali tushunchasiga bergen ta’rifini ham qisqacha ushbu satrlarda umumlashtirish mumkin: «inson kapitali – shaxsning o‘zi va umuman, jamiyatning ko‘p sonli ehtiyojlarini qoplashga xizmat qiladigan bilimi, qobiliyati va ko‘nikmalari yig‘indisidir». Inson kapitali nazariyasi asoschilarining bu qisqacha ta’rifi vaqt o‘tishi bilan insoniyat turmushida yuzaga kelgan o‘zgarishlar tufayli yil sayin kengayib va mukammallashib bormoqda. Bugungi kunda inson kapitali haqidagi nazariya iqtisod fanining mustaqil tarmog‘iga – bilim iqtisodi yo‘nalishiga aylandi.³

Inson kapitali tushunchasining markazida albatta har doim inson bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Ammo bugungi kunda bu tushunchaning zamirida yaxshi ta’lim olgan, ijodkor va tashabbuskor, yuqori professionalizmga ega inson yotmoqda. Binobarin, yuqori texnologiyalarga asoslangan va innovatsion mahsulot ishlab chiqaruvchi iqtisodiyotni faqat ana shunday professional ishchi, injener-texnik xodim, menedjer va boshqaruvchilarining armiyasi vujudga keltirishi va boshqarishi mumkin. AQSH, Yaponiya va G‘arbiy Yevropadagi boshqa rivojlangan mamlakatlarning namunasi inson kapitali hozirgi davrda zamonaviy iqtisod va jamiyatni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy ishlab chiqarish va ijtimoiy faktori ekanligini ko‘rsatmoqda. Inson kapitali tushunchasi inson faktori va insonning imkoniyatlari (resurslari) tushunchalarining yig‘indisi bo‘lishdan tashqari endi uning iqtisodiy kategoriya ekanligi barcha tarafidan tan olinmoqda.⁴

Biz YAIM ni o‘sirish uchun ham albatta ushbu “kapital”ni ko‘paytirmog‘imiz zarur. Boisi shuki, kuchli va ilm-salohiyatga ega bo‘lgan shaxslarga ega davlat iqtisodiyoti har qachon baquvvat va barqaror bo‘lib, keyingi islohatlar uchun zamin hozirlanadi.

Yuqoridagi ta’riflardan shunday xulosa qilish mumkinki, inson kapitali bu oddiy bir termin emas, balki zamonning eng ilg‘or qatlami bo‘lgan yetuk kadrlarga berilgan nisbatdir. Ushbu nisbat berilgan jumla bugungi raqamlashgan jamiyatning barcha talablariga javob bera oluvchi shaxslarga qo‘llanilishi juda o‘rinlidir. Zero, inson kapitali uchun tikilgan sarmoya hamisha o‘zini ming chandon oqlay oladi. Biz buni ushbu “kapital” ni yetishtirib berishda beqiyos o‘ringa ega bo‘lgan ta’limga berilgan

³ Kurganskiy S.A. Vvedeniye v teoriyu chelovecheskogo kapitala. - SPb.: GUEF, 1999. -60 S.; Korchagin Y. A. Sovremennaya ekonomika Rossii. - Rostov-na-Donu: Feniks, 2008 ISBN 978-5-222-14027-7.

⁴ Paulman .V F. O chelovecheskom kapitale > http://lit.lib.ru/p/paulxman_w_f/text_0900-1.shtml (December, 2014)

e'tibor va investitsiyalarning keyingi davrda olib keladigan foyda ko'lamni orqali ham bilishimiz mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent: 2018-yil, 28-dekabr //www.president.uz
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent: "O'zME", 2002-yil. T - 4: -B- 445.
3. Inson taraqqiyoti. Darslik. /I.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida . – T.: Iqtisodiyot, 2013. – B. 55;
4. "Inson kapitalining shakllanishida ta'limga va ilm-fanning roli" Usmonov B.Sh. va boshqalar, ilmiy-ommabop risola. . – T.;, 2013. – B. 55;
5. Kurganskiy S.A. Vvedeniye v teoriyu chelovecheskogo kapitala. - SPb.: GUEF, 1999. -60 S.; Korchagin Y. A. Sovremennaya ekonomika Rossii. - Rostov-na-Donu: Feniks, 2008 ISBN 978-5-222-14027-7.
6. Paulman .V F. O chelovecheskom kapitale >
http://lit.lib.ru/p/paulxman_w_f/text_0900-1.shtml (December, 2014)
7. www.Uza.uz
8. www.lex.uz
9. www.gov.uz